



## TA'LIM TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Taylakova Dilnoza Norbekovna

Oriental universiteti dotsenti

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 24

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1135>

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

didaktik shart-sharoit, ta'lif, metod,  
yondashuv

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lif texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini haqida ma'lumot keltirilgan. Tadqiqotimizda zamonaviy ta'lif texnologiyalarining o'qitish jarayonidagi o'rni va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodlar ko'rib chiqiladi. Maqolada didaktik shart-sharoitlar, o'qituvchi va talabangin o'zaro munosabati, shuningdek, o'quv texnologiyalarining pedagogik ta'siri yoritib brilgan. Izlanishlarimiz davomida interaktiv va multimedia vositalarini qo'llash kabi innovatsion metodlardan foydalananish orqali o'quv jarayonini yaxshilash orqali ta'lif texnologiyalarining samarali qo'llanilishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda o'quv jarayonining sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning yangilanishi ta'lifda yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kirish.** Dunyo bo'y lab zamonaviy ta'lif tizimida katta o'zgarishlar va yangilanishlar asta sekin o'z timsolini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ta'lifning sifati nafaqat o'quvchilarni bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, kognitiv va psixologik qobiliyatlarini shakllantrishga qaratilgan yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, eng muhim, ta'lif texnologiyalarini samarali qo'llashda mavjud didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishidir. Ta'lif texnologiyalarining joriy etilishi, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilish, o'qituvchilar esa o'z pedagogik malakalarini rivojlantrish imkoniyatiga ega bo'ladi<sup>1</sup>.

Ta'lif texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi, o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishdir. Bunda, ta'lif texnologiyalarini yordamida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'qituvchi va o'quvchi o'rtafigi samarali muloqot, o'quvchilarning faoliyatini boshqarish va ularning individual xususiyatlarga mos yondashuvlarni taqdim etish imkonini yaratadi<sup>2</sup>.

Ushbu maqolada ta'lif texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'rganiladi. Maqolaning dolzarbligi, XXI asrda ta'lif tizimining rivojlanishi bilan bog'liqidir. O'quvchilarga bilim berish jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish, ta'lif sifatini oshirish, o'qituvchilarni malakali ravishda tayyorlash zaruriyati kuchaymoqda. Yangi didaktik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv o'quv vositalari yordamida darslarni tashkil etilishi ta'lif jarayonini samarali va mazmunli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lif texnologiyalarining so'nggi yillarda kashf etilgan innovation imkoniyatlari, o'qitish metodikalarini, darslarni tashkil etishning uslublarini, shuningdek, o'quvchilarning bilim olish jarayonini jiddiy o'zgartirgan. Ma'lumki, ta'lif texnologiyalari yordamida o'quvchilar faollashadi, o'qituvchilar esa darslarni yanada jonli va interaktiv shaklda o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuvlarni o'qituvchining pedagogik malakasini oshirishga, o'quvchilarni faollashtrishga va ularga individual yondashuvlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Shu sababli, ta'lif texnologiyalarining didaktik shart-sharoitlari o'rganish bugungi ta'lif tizimining asosiy yo'nalişlaridan birdir<sup>3</sup>.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lif jarayonida texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini oshirish uchun doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, bu boroda xorijiy va o'zbek olimlarining ilmiy ishlarida ta'lif texnologiyalarining ta'siri, o'quv jarayonida samarali foydalanimning usullari haqida qator izlanishlar mavjud. Bu ilmiy tadqiqotlar ta'lif texnologiyalarini didaktik shart-sharoitlar bilan birgalikda o'rganishning zarurligini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Salomon, G., & Perkins, D. N. (1998). Individual and social aspects of learning. Review of Research in Education, 23, 1–24. <https://doi.org/10.3102/00346543023001001>

<sup>2</sup> Seel, N. M. (2003). Instructional design: A systematic approach. In Handbook of research on educational communications and technology (pp. 505–521). Springer. [https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7\\_39](https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7_39)

<sup>3</sup> Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of Personality and Social Psychology, 78(4), 772–790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>.

<sup>4</sup> Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. Cambridge University Press.

Xorijiy olimlar ta'lif texnologiyalarining didaktik shart-sharoitlarga ta'sirini turli jihatlardan o'rganishgan. Misol uchun, yetakchi olimlardan biri, Richard E. Mayer shunday o'z tadqiqotlarda, o'qitishda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali bilimlarni samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganib, "multimedia principini" ishlab chiqdi. U o'quvchilarni qiziqirish va ularning e'tiborini jaib qilish uchun vizual va audio vositalar bilan integratsiyalashgan darslarni tashkil etish zarurligini ta'kidlagan. Mayerning fikriga ko'ra, texnologiyalar darsda o'quvchilarning faol ishtirotini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ularning vizual va eshitish qobiliyatlariga mos ravishda bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi<sup>4</sup>.

Yevropada, ayniqsa Germaniyada, ta'lif texnologiyalarining samarali qo'llanilishi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jonassen, D. H. o'z ishlarida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtafigi o'zaro aloqaning interaktiv shakllarini o'rganib, didaktik shart-sharoitlarning eng yaxshi natijaga erishishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. U ta'lif texnologiyalarining to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada samarali qilishini ta'kidladi<sup>5</sup>.

O'zbekistonda esa, ta'lif texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga ta'siri bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbek olimlaridan biri, Hamidov J.A. o'z ilmiy ishlida interaktiv texnologiyalarning o'quvchilarni motivatsiyalash va ularning faolligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, interaktiv texnologiyalar, masalan, elektron ta'lif platformalari, o'quvchilarga individual yondashuvni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi va darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi<sup>6</sup>.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan Qo'yinov O.A. ta'lif texnologiyalarining pedagogik jihatlarini tahlil qilib, ta'lif jarayonining interaktiv va shaxsiyashtirilgan bo'lishi kerakligini urg'ulagan. Uning fikriga ko'ra, ta'lif texnologiyalarini joriy etish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil eta oladilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lif texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini o'rganish uchun asosiy metodologik yondashuv sifatida ta'lif texnologiyalarining pedagogik jihatlari, o'qitishning didaktik shart-sharoitlari va innovation o'qitish metodlari tahlil qilingan. Keltirilgan metodologiya jarayonida amaliy va nazariy tadqiqot usullari hamda sifatlari va miqdoriy tadqiqotlar kombinatsiyasi qo'llanilgan.

Birinchidan, tadqiqotda ta'lif texnologiyalarining ta'sirini o'rganish uchun mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil yordamida didaktik shart-sharoitlar, o'qitish jarayonining

<sup>5</sup> Jonassen, D. H. (2000). Computers as mindtools for schools: Engaging critical thinking. Prentice Hall.

<sup>6</sup> Hamidov J.A Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituchiining zamonaviy va didaktik vaositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss: Avtoref. – T.: 2017. - 70 b.

<sup>7</sup> Qo'yinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantrish texnologiyalari. Monografiya. – T.: "DELTA PRINT SERVIS" NASHRIYOTI. 2018.- 156 b

samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar va metodlar haqida ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning o'qituvchilar va talabalarga ta'siri, yangi pedagogik metodlarning qo'llanilishi va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni aniqlangan.

Ikkinchidan, maqolada sifatli tadqiqot metodlari hamda holat tahlili orqali o'qitishning real sharoitlarida texnologiyalarning qo'llanilishi o'rganildi. Bu jarayonda turli o'quv muassasalarida o'qitish jarayonini kuzatish, intervyular o'tkazish va o'quvchilar bilan so'rovlar o'tkazish orqali metodlar va texnologiyalarning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotda o'qituvchilarning fikr va mulohazalar hamda talabalar tomonidan ta'lim texnologiyalariga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Bu yondashuv ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiya qilinishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi.

Uchinchidan, miqdoriy metodlar yordamida o'qitish samaradorligini baholash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotda bir nechta guruhlar (eksperimental va nazorat guruhlari) asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijalari tahlil qilindi. Eksperimental guruhda zamonaviy ta'lim texnologiyalari (multimedia vositalari, interaktiv ta'lim platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari) qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari asosida darslar olib borildi. Tadqiqot davomida talabalar o'rtasida o'quv natijalari, motivatsiya va o'quv faoliyatining faolligi o'lchandi. Olingan natijalar asosida ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ta'siri baholandi.

To'rtinchidan, maqolada tizimli yondashuv asosida o'qitishning didaktik shart-sharoitlari tahlil qilindi. Bu tahlilda o'qituvchilarning malakasi, o'quv texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan infratuzilma, ta'lim muassasasining material-texnik bazasi va o'quv dasturlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarga maxsus treninglar va uslubiy qo'llanmalar taqdim etilishi zarurligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Maqolada ta'lim texnologiyalarini asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari tahlil qilindi va o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq bir qator natijalar olinib, o'quvchilarning bilim olishdagini muvaffaqiyatlari, o'qitish samaradorligi va ta'lim texnologiyalarining pedagogik ta'siri haqida xulosa qilindi. Ushbu natijalar ta'linda texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshirish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqotda ta'lim texnologiyalarining o'quvchilar motivatsiyasiga salbiy yoki ijobiy ta'sirini aniqlashga urinishlar amalga oshirildi. O'qitish jarayonida interaktiv va multimedia vositalarining qo'llanilishi talabalar uchun o'qishni qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Eksperimental guruhda o'qigan talabalar, nazorat guruhiqa qaraganda, darslarga yanada faol va qiziqish bilan yondashganligini ko'rsatdi. O'quvchilar o'zingizning bilim va ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish, ta'lim jarayonini yangicha ko'rish orqali, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirdi va ta'limga bo'lgan motivatsiyasi kuchaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga olib keldi. Multimedia va interaktiv platformalar yordamida darslarni tashkil etish o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, muammoni hal qilish va kreativ yondashuvni rivojlantrish imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnologiyalar yordamida taqdim etilgan vizual va interaktiv materiallar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilgan va mavzuni tezroq tushunishlariga yordam berdi. Bu o'z navbatida o'qitishning samaradorligini oshirdi.

Tadqiqotda shuningdek, o'qituvchilarning ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorligi ham o'rganildi. O'qituvchilar o'z malakalarini oshirish va yangi metodlarni o'zlashtirishda ba'zan qiyinchiliklarga duch kelgan. Ma'lum bo'lishicha, texnologiyalarga tayyorlik darajasi o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ta'lim texnologiyalarini

#### Adabiyotlar

1. Salomon, G., & Perkins, D. N. (1998). Individual and social aspects of learning. *Review of Research in Education*, 23, 1-24. <https://doi.org/10.3102/00346543023001001>
2. Seel, N. M. (2003). Instructional design: A systematic approach. In *Handbook of research on educational communications and technology* (pp. 505-521). Springer. [https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7\\_39](https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7_39)
3. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772-790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>
4. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. *Cambridge University Press*.

to'liq va samarali qo'llash uchun, o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi kerak. Ularning texnologik savodxonligini oshirish uchun maxsus treninglar va o'quv kurslari zarus. O'qituvchilarga kerakli texnologik vositalar bilan ta'minlash, shuningdek, o'qitish uslubiyotini yangilash, ta'limning samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

O'quvchilarning o'zaro hamkorlik va jamoaviy ishslash ko'nikmalarini rivojlantrish: O'quvchilarga ta'lim texnologiyalarini yordamida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati yaratilgan. Interaktiv dasturlar va onlayn platformalar orqali talabalar jamaa tarzida ishslashga, fikr almashishga va muammolarni birlgilikda hal qilishga o'rgandilar. Bu usul o'quvchilarda jamoaviy ishslash, muloqot qilish, o'zaro hurmat va fikrlarni inobatga olish kabi ko'nikmalarini rivojlantrishga yordam beradi. O'quvchilarning jamoaviy faoliyatlarini tahlil qilish jarayonida, ularning o'zaro yordam berish va ko'proq faoliyat ko'rsatish tendensiyalari aniqlangani kuzatildi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning so'zlashuv va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam berdi.

Darslarni tashkil etishda didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri yaratilishi o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhimdir. O'quv texnologiyalarining samarali qo'llanishi uchun o'qituvchilarga didaktik yondashuvni to'g'ri tanlash va o'quv jarayonini uzlusiz ravishda yangilab borish zarur. Darslarning interaktivligi, o'quvchilarning individual xususiyatlari moslashishi va texnologiyalarining o'zaro uyg'unlashganligi o'qitishning samaradorligini oshiradi. Darslarni tashkil etishda o'qituvchilarning metodik qo'llanmalari, materiallar va texnologiyalarni to'g'ri tanlashi ham muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridaq natijalar shuni ko'rsatadi, ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini sifatli va samarali qilishga yordam beradi. Texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning faol ishtiropini ta'minlashga yordam beradi, balki o'qitishning didaktik shart-sharoitlarni ham yaxshilaydi. Biroq, o'qituvchilarning texnologik savodxonligi va metodik malakasi yuqori bo'lishi zarur. Shuningdek, ta'lim tizimi va o'quv muassasalarini uchun zarur infratuzilmani yaratish, o'qituvchilarni doimiy ravishda yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga kerakli qo'llanma va metodik materiallar taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning malakali bo'lishi va texnologiyalarini samarali qo'llashi ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga, o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning yangilanishi va ta'lim texnologiyalarining pedagogik yondashuvda to'g'ri qo'llanishi o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga hamda ularning jamoaviy va individual ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari yordamida o'quvchilarning motivatsiyasi va faol ishtiropi ortadi. O'qituvchilarning texnologiyalarga tayyorligi va malakasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning doimiy ravishda yangi metodlarga moslashishi talab etiladi. Darslarni tashkil etishda didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri yaratilishi o'qitishning samaradorligini ta'minlaydi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va o'quv muassasasining infratuzilmasi o'qitish jarayonining sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash ta'lim jarayonining barcha jihatlarida ijobiy natijalarga olib keladi va o'quvchilarning bilim olishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarga doimiy malaka oshirish zarur.

3. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772-790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>

4. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. *Cambridge University Press*.